

## 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyat farovonligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Resurslar sarfini tejovchi samarali innovatsion iqtisodiyotni barpo etish jarayonida xizmatlar sohasi alohida o'rin tutadi, chunki u, tovar ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, materiallar sarfini kamligiga, xarajatlarni tez qoplanishi va yuqori daromadlilikka ega.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

### 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

5 975,3  
mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi



102,7 %

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari  
hajmining o'sish sur'atlari

101,1 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan  
bozor xizmatlari hajmining o'sish  
sur'atlari

3 186,3  
ming so'm

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi

**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

## Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5 975,3 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 610,5 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,7 % ni tashkil etdi.



**O'sish sur'ati**

• 102,7 %

**Hajmning oshishi**


• 610,5 mlrd. so'm

**Xizmatlar hajmi**

• 5 975,3 mlrd. so'm

**Xizmatlar** — iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi, mlrd. so'm




2020- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning noyabr oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 127,0 mlrd. so'mga oshib 610,5 mlrd. so'mga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** o'tgan yilning shu davrida ularning hajmi 144,2 mlrd. so'mga o'sgan va 538,8 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2020- yil X - diskret (oktabr) oyining hajmiga nisbatan taqqoslaganda, 2020- yil XI – diskret (noyabr) oyining hajmi 43,1 mlrd. so'mga kamaygan.

**Taqqoslash uchun:** 2019 - yilning X va XI – diskret oylari o'rtasidagi farqi 30,7 mlrd. so'mni tashkil etgan.




Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

|                                                                                              | Hajmi,<br>mlrd. so'm | O'tgan yilga<br>nisbatan o'sish<br>sur'ati, % da |
|----------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------|--------------------------------------------------|
| <b>Xizmatlar - jami</b>                                                                      | <b>5975,3</b>        | <b>102,7</b>                                     |
| <i>shu jumladan:</i>                                                                         |                      |                                                  |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari                                                        | 311,7                | 111,8                                            |
| Moliyaviy xizmatlar                                                                          | 1145,8               | 123,8                                            |
| Transport xizmatlari                                                                         | 1462,2               | 101,3                                            |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari                                                       | 1402,8               | 101,5                                            |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari                                                            | 131,4                | 88,0                                             |
| Savdo xizmatlari                                                                             | 1603,8               | 96,3                                             |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar                                                        | 163,3                | 92,6                                             |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar                                                                  | 272,4                | 92,6                                             |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar                                                       | 99,1                 | 96,2                                             |
| Ijara xizmatlari                                                                             | 127,7                | 107,3                                            |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash<br>bo'yicha xizmatlar                             | 192,2                | 92,9                                             |
| Shaxsiy xizmatlar                                                                            | 180,3                | 93,3                                             |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari,<br>texnik sinovlar va tahlil sohasidagi<br>xizmatlar | 143,4                | 133,7                                            |
| Boshqa xizmatlar                                                                             | 142,0                | 82,2                                             |


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi 26,8 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (24,5 %), moliyaviy xizmatlar (19,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (5,2 %) qayd etildi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'lmagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,7 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'lmagan ulush ijara sohasidagi xizmatlar - 2,1 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari - 2,2 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar- 2,4 % hissasiga to'g'ri keldi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarining taqqoslanishi



Yuqori o'sish me'morchilik sohasidagi xizmatlar (33,7 %), moliyaviy xizmatlar (23,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (11,8 %), ijara xizmatlari (7,3 %) va transport xizmatlari (1,3 %) da qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Boshqa xizmatlar hajmida sezilarli darajada (17,8 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish xizmatlari (12,0 % ga), ta'lim sohasidagi xizmatlar (7,4 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (7,4 % ga), kompyuterni ta'mirlash xizmatlari (6,9 % ga), shaxsiy xizmatlar (6,7 % ga), shuningdek sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlari (3,8 % ga) da pasayish kuzatildi.



## Dastlabki ma'lumotlar

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.


2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 26,8 % ni tashkil etib, bu 1 603,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

**Savdo** – bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.


## Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Joriy davrda avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlarning ulushi 78,3 % ga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 14,6 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 7,1 % ni tashkil etdi.

## **Moliyaviy xizmatlar** (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

**Moliyaviy xizmatlar hajmi 1 145,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 876,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



**Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 19,2 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida ularni ulushi 16,6 % ni tashkil etdi.

**O'tgan yilning shu davriga nisbatan hajmning 269,3 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.**




**Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 23,8 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida ularni o'sish sur'ati 161,1 % ga yetgan.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.



## Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 92,5 % ni tashkil etadi.


Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 4,9 % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 2,6 % ni tashkil etadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKTning rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

AKTdan faol foydalanish keng qamrovli infratuzilmaga asoslangan bo'lib, u eng zamonaviy uskunalar va texnologiyalar bilan jihozlangan, yuqori kadrlar salohiyatiga ega.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)




2019-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 311,7 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 111,8 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 5,2 % ni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)




|                                                                                                                                                                                                                                      |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 96,6 % ni tashkil etdi.</p> | <p>Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 0,7 % ni, boshqa aloqa xizmatlari - 0,9 % ni, nashriyotchilik xizmatlari - 1,5 % ni, shuningdek, axborot sohasidagi xizmatlar - 0,3 % ni tashkil etdi.</p> |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 272,4 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 4,6 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 92,6 % ni tashkil etdi.



**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**  
*(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)*

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 87,2 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 131,4 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi atigi 2,2 % ni tashkil etdi.



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash** bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

73,6 %



Oziq-ovqat va ichimliklar  
bilan ta'minlash bo'yicha  
xizmatlar

Yashash bo'yicha  
xizmatlar



26,4 %

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 73,6 % bilan ustunlik qiladi.


2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 26,4 % ni tashkil etdi.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 99,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiy hajmida ularning ulushi 1,7 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 96,2 % ni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar, iste'molchilarning daromad darajasi, didi va xohish-istaklariga qarab differensiyalanadi.



## Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

|                        | Hajmi,<br>mlrd. so'm | O'tgan yilga<br>nisbatan o'sish<br>sur'ati, % da | Aholi jon boshiga<br>ko'rsatilgan bozor<br>xizmatlari hajmi,<br>ming so'm |
|------------------------|----------------------|--------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------|
| <b>Xorazm viloyati</b> | <b>5 975,3</b>       | <b>102,7</b>                                     | <b>3 186,3</b>                                                            |
| Urganch shahri         | 3 000,3              | 104,3                                            | 20 806,3                                                                  |
| Xiva shahri            | 213,1                | 103,9                                            | 2 304,2                                                                   |
| <i>Tumanlar :</i>      |                      |                                                  |                                                                           |
| Bog'ot                 | 263,7                | 104,5                                            | 1 601,3                                                                   |
| Gurlan                 | 266,1                | 100,7                                            | 1 794,1                                                                   |
| Qo'shko'pir            | 257,4                | 106,7                                            | 1 493,6                                                                   |
| Urganch                | 423,2                | 85,2                                             | 2 128,7                                                                   |
| Hazorasp               | 289,5                | 100,2                                            | 1 494,7                                                                   |
| Tuproqqal'a            | 92,6                 | 100,5                                            | 1 677,4                                                                   |
| Xonqa                  | 291,8                | 100,4                                            | 1 565,7                                                                   |
| Xiva                   | 222,6                | 112,1                                            | 1 528,1                                                                   |
| Shovot                 | 243,4                | 103,4                                            | 1 431,9                                                                   |
| Yangiariq              | 213,8                | 106,6                                            | 1 841,5                                                                   |
| Yangibozor             | 197,7                | 110,8                                            | 2 262,0                                                                   |

<sup>\*)</sup> Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Urganch shahri (3000,3 mlrd. so'm), Urganch tumani (423,2 mlrd. so'm), Xonqa tumanida (291,8 mlrd. so'm) qayd etildi.

## Dastlabki ma'lumotlar

Ma'lumki, zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3186,3 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,1 % ni tashkil etdi.



2019- yilning yanvar- noyabr oylariga nisbatan

Respublikada xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlariga, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.



*Dastlabki ma'lumotlar*

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek, kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

**Tel.: 62-22-4-65-16**